

## IQTSIDYOYITNING STRATEGIK TARMOQ KORXONALARNING MODENIZATSIYASINI TA'MINLASHNING MAZMUN-MOHİYATI VA AHAMIYATI

### Mamayusupov Ollamurod Namozovich

Strategik korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda foydalaniladigan ko'rsatkichlardan biri – moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti hisoblanadi. Bunda, koeffitsiyentni hisoblashda korxonaning o'z mablag'larining jami balans qiymatiga nisbati orqali topiladi hamda normadagi qiymat sifatida  $K_1 > 0,5$  shart bajarilganda maqsadga muvofiqdir.

#### 2.2.1-jadval

**“O'zbekneftgaz” AJning moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining yillar bo'yicha o'zgarishi**

| Ko'rsatkichlar nomi                        | 2014y  | 2015y  | 2016y  | 2017y | 2018y   | 2019y   | 2020y   | 2021 y | Norma |
|--|--------|--------|--------|-------|---------|---------|---------|--------|-------|
| O'z mablag'lari (mlrd.so'm)                | 2762,8 | 3701,5 | 8112,4 | 20049 | 21203,2 | 34169,3 | 46762,6 | 30 841 |       |
| Jami balans qiymati (mlrd.so'm)            | 8286,6 | 11451  | 16832  | 35745 | 39416,7 | 64981,7 | 65115,2 | 58 313 |       |
| Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti $K_1$ | 0,33   | 0,32   | 0,48   | 0,56  | 0,54    | 0,53    | 0,72    | 0,53   | >0,5  |

Manba: “O'zbekneftgaz” AJning hisobotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan

Aksiyadorlik jamiyatining o'z mablag'lari tarkibiy o'zgarishlari natijasida ushbu koeffitsiyent miqdorining ijobiy o'zgarishlarini ko'rishimiz mumkin. Bunda o'z mablag'lari tarkibiy ulushining 50 foizini aksiyalari qiymati hamda qolgan 50 foizini maqsadli tushumlar va rezerv fondi mablag'lari tashkil etgan.

#### 2.2.2-jadval

**“O'zbekneftgaz” AJning moliyaviy richak (leverej) ko'rsatkichining yillar bo'yicha o'zgarishi**

| Ko'rsatkichlar nomi              | 2014y  | 2015y  | 2016y  | 2017y   | 2018y   | 2019y   | 2020y   | 2021y | Norma |
|----------------------------------|--------|--------|--------|---------|---------|---------|---------|-------|-------|
| Jami majburiyatlar (mlrd.so'm)   | 5523,8 | 7749,5 | 8719,7 | 15695,4 | 18213,3 | 30812,3 | 18352,6 | 27172 |       |
| O'z mablag'lari (mlrd.so'm)      | 2762,8 | 3701,5 | 8112,4 | 20049   | 21203,2 | 34169,3 | 46762,6 | 30841 |       |
| Moliyaviy richak (leverej) $K_2$ | 2      | 2,09   | 1,07   | 0,78    | 0,86    | 0,9     | 0,39    | 0,88  | 1:2   |

Manba: “O'zbekneftgaz” AJning hisobotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan



Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 2014 yilda 0,33 ge teng bo'lgan bo'lsa, 2020 yilga kelib 2 barobarga o'sgan hamda koeffitsiyent uchun talab qilingan chegaraviy miqdoridan oshgan. Koeffitsiyent tahlilining xulosasi bo'yicha "O'zbekneftgaz" Ajni moliyaviy mustaqil, faoliyatida qarz mablag'lariga qaramlik holati mavjud emas deb ta'kidlash mumkin.

Moliyaviy richag yoki leverej ko'rsatkichi bo'yicha 1:2 taqsimoti aslida jami passiv summasining taqsimoti 1:2 holatda bo'lishini tavsiflaydi, ya'ni 1 qismi qarz mablag'lariga to'g'ri kelishi qolgan 2 qismi esa o'z mablag'laridan tashkil topgan bo'lishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Lekin chegaraviy miqdori  $K_2 < 1$  ga teng deb ta'kidlanadi.

Aksiyadorlik jamiyati bo'yicha 2014 yilda 2 ga teng, 2017 yildan 2019 yilga qadar 0,7 -0,9 oralig'ida bo'lgan hamda 2020 yilda 0,4 ga teng bo'lgan. Bundan kelib chiqib, aksiyadorlik jamiyati o'z mablag'lari ulushi majburiyatlaridan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Bunda, korxonaga o'z moliyaviy faoliyatida qo'shimcha qarz mablag'lari jalb qilish imkoniyatlari mavjud.

#### 2.2.3-jadval

### **"O'zbekneftgaz" AJning o'z aylanma kapitalini samarali boshqarish koeffitsiyentining yillar bo'yicha o'zgarishi**

| Ko'rsatkichlar nomi  | 2014y | 2015y  | 2016y  | 2017y | 2018y | 2019y  | 2020y | 2021y  | Norma |
|--|-------|--------|--------|-------|-------|--------|-------|--------|-------|
| O'z aylanma mablag'lari  | 1 767 | 2 968  | 3 903  | 5 602 | 7 130 | 11 824 | 5 955 | -1 409 |       |
| O'z mablag'lari (mlrd.so'm)  | 8 287 | 11 451 | 16 832 | 35744 | 39417 | 64982  | 65115 | 58313  |       |
| O'z aylanma kapitalini samarali boshqarish koeffitsiyenti (manyovr koeffitsiyenti) $K_3$ | 0.21  | 0.26   | 0.23   | 0.16  | 0.18  | 0.18   | 0.09  | -0.02  | >0,5  |

Manba: "O'zbekneftgaz" AJning hisobotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan

Aksiyadorlik jamiyatining o'z aylanma kapitalini samarali boshqarish koeffitsiyenti korxonaga faoliyatida o'z kapitalining mobilizatsiya qilinishi ko'rsatuvchi koeffitsiyent bo'lib, chegaraviy miqdori  $K_3 > 0,5$  bo'lganda maqsadga muvofiq. Jamiyatning balans hisoboti bo'yicha 2014-2018 yillar davomida asosiy vositalari qiymati ko'rsatilmaganligi sababli 1 ga teng bo'lgan bo'lsa, 2019 yil va 2020 yilda mos ravishda 0,18 koeffitsiyentga teng bo'lgan hamda 2021 yilda ushbu ko'rsatkich -0.02 ga teng.

#### 2.2.4-jadval



**“O‘zbekneftgaz” AJning moliyaviy barqarorligi koeffitsiyentining yillar bo‘yicha o‘zgarishi**

| Ko‘rsatkichlar nomi                        | 2014y  | 2015y  | 2016y  | 2017y   | 2018y   | 2019y   | 2020y   | 2021y  | N    |
|--|--------|--------|--------|---------|---------|---------|---------|--------|------|
| O‘z mablag‘lari (mlrd.so‘m)                | 2762,8 | 3701,5 | 8112,4 | 20049   | 21203,2 | 34169,3 | 46762,6 | 30 841 |      |
| Uzoq muddatli majburiyatlar                | 3207,7 | 4740,2 | 5264,7 | 15005,7 | 16114,1 | 23240,2 | 10802,9 | 18 328 |      |
| Jami balans qiymati                        | 8287   | 11 451 | 16 832 | 35 744  | 39 417  | 64 982  | 65 115  | 58 313 |      |
| Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti $K_4$ | 0,72   | 0,74   | 0,79   | 0,98    | 0,95    | 0,88    | 0,88    | 0,84   | >0,6 |

Manba: “O‘zbekneftgaz” AJning hisobotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti o‘z mablag‘lari va uzoq muddatli qarz mablag‘larining jami balans qiymatiga nisbati orqali hisoblanib, bunda chegaraviy qiymat ko‘rsatkichi  $K_4 > 0,6$  bo‘lganda maqsadga muvofiqdir. Aksiyadorlik jamiyati balans tahlili bo‘yicha moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti barqaror o‘shish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, moliyaviy faoliyati davomida o‘z mablag‘lari va uzoq muddatli qarz mablag‘lariga asosan amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

2.2.5-jadval


**“O‘zbekneftgaz” AJning o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyentining yillar bo‘yicha o‘zgarishi**

| Ko‘rsatkichlar nomi  | 2014y  | 2015y  | 2016y  | 2017y  | 2018y   | 2019y   | 2020y   | 2021y | N        |
|--|--------|--------|--------|--------|---------|---------|---------|-------|----------|
| Aylanma mablag‘lari  | 4083   | 5977,2 | 7357,6 | 6294,6 | 9228,7  | 19395,9 | 13504,9 | 7435  |          |
| O‘z mablag‘lari (mlrd, so‘m)                                       | 2762,8 | 3701,5 | 8112,4 | 20049  | 21203,2 | 34169,3 | 46762,6 | 30841 |          |
| O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti $K_5$ | 0,68   | 0,62   | 1,1    | 3,19   | 2,3     | 0,49    | 1,42    | 0,04  | >0,6-0,8 |

Manba: “O‘zbekneftgaz” AJning hisobotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan

O‘z aylanma mablag‘lari ko‘rsatkichi jamiyatning to‘lovga layoqatsizligini ko‘rsatuvchi koeffitsiyentlardan biri hisoblanib, aylanma mablag‘lar tarkibining qarz mablag‘lariga bog‘liqliligini baholaydi. Koeffitsiyentning normativ chegaraviy qiymati  $K_5 > 0,6-0,8$  teng bo‘lganda maqsadga muvofiq. Tahlil natijasi bo‘yicha koeffitsiyent





tegishli shartni qanoatlantirgan. Xulosa qilib aytish mumkinki, aylanma mablag'larni ta'minlashda qarz mablag'lariga bog'liq emas.

Moliyaviy barqarorlik holatini baholash ko'rsatkichlari tahlili bo'yicha aksiyadorlik jamiyaning holati barqaror ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatining aktivlari va kapital rentabelligi hisoblanishi maqsadga muvofiq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Bringham E.F., Ehrhardt M.C. Financial management theory and practice. Thomson South-Western, 2008. 1107 p.
2. Hillier D., Grinblatt M., Titman Sh. Financial Markets and Corporate Strategy. London: McGraw-Hill Higher Education, 2012. 877 p.
3. Korso E. Inclusive growth analysis and HRV: A methodological note. 2011. Elektron manba: <http://siteresources.worldbank.org>
4. Landesmann, Michael Alroy (2000): Structural Change in the Transition Economies, 1989 to 1999. The Vienna Institute for International Economic Studies.
5. Modigliani F., Miller M. The Cost of Capital, Corporate Finance, and the Theory of Investment // American Economic Review, v. 48. (1958).
6. Modigliani F., Miller M. (1963) "Corporate Income Taxes and the Cost of Capital: A Correction" American Economic Review, Vol. 53, No. 3, pp. 147 – 175.
7. Peter Brusov, Tatiana Filatova, Natali Orehova, Nastia Brusova. Weighted average cost of capital in the theory of Modigliani-Miller, modified for a finite lifetime company // Applied Financial Economics, v. 21, № 4.

